



THE CONDITION OF ORTHODOX CHURCHES IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (ON THE EXAMPLE OF SAMARKAND REGION)

Dilshod Narbotirovich Abduvohidov

PhD Candidate

Sharof Rashidov Samarkand State University

E-mail: norbotirovich@mail.ru

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, independence, Orthodox Church, Samarkand, state-church relations, cultural heritage, restoration, interfaith harmony.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the activities of Orthodox churches in the country after Uzbekistan gained independence, their legal status and role in public life. The study covers the issues of reorganization of Orthodox communities, restoration of churches and opening of new religious centers on the example of Samarkand region. It also analyzes cooperation between the state and the church, practical results of the policy of religious tolerance, and the cultural and architectural significance of the Orthodox heritage.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA PRAVOSLAV CHERKOVLARINING HOLATI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Dilshod Narbotirovich Abduvohidov

PhD doktorant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti

e-mail: norbotirovich@mail.ru

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, mustaqillik, pravoslav cherkovi, Samarqand, davlat va cherkov munosabatlari, madaniy meros, restavratsiya, konfessiyalararo totuvlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda mamlakatdagi pravoslav cherkovlarining faoliyati, ularning huquqiy maqomi va jamiyat hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Samarqand viloyati misolida pravoslav jamoalarining qayta tashkil etilishi, cherkovlarning restavratsiya qilinishi

va yangi diniy markazlarning ochilishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, davlat va cherkov o'rtasidagi hamkorlik, diniy bag'rikenglik siyosatining amaliy natijalari hamda pravoslav merosining madaniy va me'moriy ahamiyati tahlil etiladi.

СОСТОЯНИЕ ПРАВОСЛАВНЫХ ЦЕРКВЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ)

Дилишод Нарботирович Абдулвахидов

Докторант PhD

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

E-mail: norbotirovich@mail.ru

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, независимость, Православная Церковь, Самарканд, государственно-церковные отношения, культурное наследие, реставрация, межконфессиональное согласие.

Аннотация: В статье анализируется деятельность православных церквей в стране после обретения Узбекистаном независимости, их правовой статус и роль в общественной жизни. В исследовании освещаются вопросы реорганизации православных общин, реставрации храмов и открытия новых религиозных центров на примере Самаркандской области. Анализируются государственно-церковное взаимодействие, практические результаты политики религиозной толерантности, культурное и архитектурное значение православного наследия.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon, avvalo, diniy hayotning tiklanishi va konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikenglik siyosatining shakllanishida yaqqol namoyon bo'ldi. Mustaqillik yillarida davlat tomonidan turli diniy e'tiqod vakillarining huquqlarini himoya qilish, ularning ibodat erkinligini ta'minlash borasida muhim qonuniy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida "Har kim vijdon erkinligi huquqiga ega" deb belgilanishi, diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniy kafolatini mustahkamladi [1]. Ana shunday siyosiy-huquqiy muhitda pravoslav cherkovlari ham o'z faoliyatini yangilangan sharoitda davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xususan, Samarqand viloyati — o'zining qadimiy madaniy va diniy tarixiga ega hudud sifatida, mustaqillik yillarida pravoslav jamoalarining diniy hayoti, ibodat joylarini ta'mirlash va tiklash jarayonlarida sezilarli faollikni namoyon etdi. Bu jarayon nafaqat diniy amaliyotning jonlanishi, balki millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqotning mustahkamlanishiga ham xizmat qildi. Mazkur ilmiy maqolaning

dolzarbligi shundan iboratki, u mustaqillik davrida mamlakatda shakllangan diniy bag‘rikenglik siyosatining amaliy ifodasi sifatida pravoslav cherkovlarining o‘rni va faoliyatini tarixiy-nazariy jihatdan yoritishga qaratilgan. Ayniqsa, Samarqand viloyati misolida bu jarayonlarni tahlil etish, O‘zbekistonning umumiy diniy madaniyatidagi o‘zgarishlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Tadqiqot ob‘ekti sifatida Samarqand viloyatidagi pravoslav cherkovlari, xususan, ularning mustaqillik davridagi faoliyati, restavratsiya ishlari hamda diniy-ma‘naviy hayotdagi o‘zgarishlar o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur ilmiy maqola ishida tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, qiyosiy, hamda sotsiologik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mustaqillik yillarida Samarqand viloyatida pravoslav cherkovlarining holati, ularning faoliyatidagi ijtimoiy-diniy o‘zgarishlar va davlat siyosatidagi o‘rni hamda ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Avvalo, tarixiy-tahliliy yondashuv yordamida mustaqillikdan so‘nggi davrda O‘zbekistonda diniy siyosatning o‘zgarish jarayoni, pravoslav cherkovlari faoliyatining qonuniy asoslari hamda ularning davlat bilan o‘zaro aloqalari o‘rganildi. Shu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosiy huquqiy manba sifatida tahlil qilindi [2].

Manbashunoslik usuli orqali Samarqand viloyatidagi pravoslav cherkovlariga oid tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va rasmiy ma‘lumotlardan foydalanildi. Xususan, Samarqand viloyati davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan XX asr oxiri – XXI asr boshlariga oid hujjatlar, mahalliy yeparxiya faoliyatiga doir ma‘lumotlar tadqiq etildi. Shu bilan birga, cherkovlar faoliyatiga oid O‘zbekiston pravoslav yeparxiyasi axborot xizmati, cherkov jamoalarining rasmiy saytlarida e‘lon qilingan ma‘lumotlardan ham foydalanildi [3].

Qiyosiy tahlil usuli orqali mustaqillikdan oldingi davr (ya‘ni sovet davrida) va mustaqillikdan keyingi davrda pravoslav cherkovlarining huquqiy maqomi, moddiy bazasi hamda diniy amaliyotdagi farqlar aniqlanib, ular o‘zaro solishtirildi. Natijada, mustaqillik davrida pravoslav cherkovlarining faoliyati yanada erkinlashgani, ularning diniy va madaniy hayotda faol ishtirok etayotganligi ilmiy asosda ko‘rsatildi.

Shuningdek, sotsiologik kuzatuv usuli orqali Samarqand shahridagi pravoslav jamoalarining amaldagi diniy hayoti, ularning diniy marosimlarni tashkil etish jarayoni, jamoa a‘zolari sonining o‘zgarishi, ijtimoiy tadbirlarda ishtiroki kuzatildi. Bu ma‘lumotlar mahalliy cherkov vakillari bilan olib borilgan suhbatlar hamda joyida o‘tkazilgan kuzatuvlar asosida to‘plandi [4].

Natijalar. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda diniy hayotning tiklanishi milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu

jarayon nafaqat islom dini vakillari, balki boshqa konfessiyalar, jumladan, pravoslav nasroniylari uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi. Sovet davrida diniy tashkilotlar faoliyatining keskin cheklangani, cherkov binolarining yopilishi yoki boshqa maqsadlarda foydalanilishi natijasida pravoslav jamoalari faoliyati deyarli to'xtab qolgan edi [5]. Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati tomonidan vijdon erkinligini ta'minlash, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini tiklash va ularning faoliyatini qonuniy asosda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 1998-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun (2021-yilda qayta tahrir qilingan) pravoslav cherkovlari faoliyatining huquqiy kafolatini mustahkamladi [6]. Shuningdek, 1990-yillar o'rtalaridan boshlab, pravoslav jamoalari o'z diniy ibodatlarini erkin tashkil etish, ibodatxona binolarini qayta tiklash va ro'yxatdan o'tkazish imkoniga ega bo'ldilar. Bu jarayonlardan Samarqand viloyatidagi cherkovlar ham chetda qolmadi. Xususan bu yerda Sovet davrida yopilib, uzoq vaqt davomida omborxona, ma'muriy tashkilotlarning xizmat binosi sifatida foydalanilgan pravoslav ibodatxonalar 1996-yildan mahalliy pravoslav jamoasi va O'zbekiston yeparxiyasi tashabbusi bilan qayta ta'mirlanib, o'zining diniy faoliyatini tikladi. Shuningdek, Kattaqo'rg'on shahridagi Avliyo Vladimir cherkovi ham restavratsiya qilinib, pravoslav jamoasining ibodat maskaniga aylandi [7]. Shu bilan birga, mahalliy pravoslav jamoalarining Pasxa, Rojdestvo (Milod) va boshqa diniy bayramlari muntazam o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda Samarqandda diniy ibodatxona sifatida faoliyat ko'rsatayotgan cherkovlar – Samarqand shahrida joylashgan Avliyo Aleksey sobori, Muqaddas Georgiy G'olib qabriston ibodatxonasi va Muqaddas Pokrov cherkovi hisoblanadi. Kattaqo'rg'onidagi Avliyo knyaz Vladimir nomidagi cherkov ham rasman diniy maskan sifatida ro'yxatdan o'tgan va u ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bir vaqtlar cherkov sifatida qurilib keyinchalik turli sabablar bilan yopilgan, hozirgi kunda esa boshqa maqsadda foydalanilayotgan cherkov binolari ham viloyatda mavjud. Masalan, Muqaddas Georgiy G'olib cherkovi, Avliyo Nikolay nomidagi temiryo'l cherkovi va Payariq tumani markazida joylashgan Muqaddas Pokrov cherkovlari bugungi kunda muzey va san'at sohaslarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Samarqanddagi yagona sobor bo'lgan Avliyo Aleksey cherkovi Sovet davrida yopilib faqatgina 1996-yilda o'z dindorlariga qaytarildi. Shu yilning 13-noyabrida sobor Moskva va Butun Rossiya patriarxi Aleksey II tomonidan qayta muqaddas qilindi. 2003-yil avgust oyida soborga nufuzli mehmon – prezidentlar I. A. Karimov va V. V. Putin mitropolit Vladimir hamrohligida tashrif buyurishdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Samarqandda bunday muhtasham ibodatxona borligini kutmaganligini va hayratda qolganini ta'kidladi [8]. Umuman olganda, Samarqanddagi barcha xristian yodgorliklari o'zining noyob arxitekturasini va me'moriy yechimlari tufayli diqqatga sazovordir.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridayoq O'zbekistonning madaniy siyosati nafaqat milliy, balki tarixan shakllangan diniy me'moriy merosni asrash va uni qayta tiklashga ham alohida e'tibor qaratdi. Bu jarayon, avvalo, O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni (2001-y.) hamda Prezident farmonlari asosida yo'lga qo'yildi [9]. Ushbu huquqiy asoslar diniy inshootlar, jumladan pravoslav cherkovlarini ham tarixiy obida sifatida muhofaza etish imkonini berdi.

Samarqand viloyati o'zining turli konfessional tarixiy merosi bilan ajralib turadi. Shahar me'moriy qiyofasida islomiy obidalar bilan bir qatorda xristianlik yodgorliklari ham muhim o'rin egallaydi. Mustaqillikdan keyingi yillarda bu cherkovlar nafaqat diniy faoliyatni tikladi, balki madaniy meros obidasi sifatida restavratsiya qilinib, turizm va madaniy tadbirlar tizimiga ham kiritildi. Shuningdek, cherkovlarning me'moriy tiklanish jarayonida O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi mutaxassislari hamkorligida amalga oshirilgan ikonografik tahlillar, me'moriy o'lchov ishlari va rekonstruksiya loyihalari ham katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning natijalari asosida nafaqat cherkov binolari tiklandi, balki pravoslav madaniy merosi bo'yicha ilmiy hujjatlashtirish ishlari ham yo'lga qo'yildi. Shuningdek, shahardagi ba'zi cherkovlarda o'z diniy ta'lim faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Cherkovlar qoshida yakshanbalik maktablari, yoshlar uchun esa diniy-ma'naviy kurslar, bayram tadbirlari tashkil etila boshlandi.

O'zbekistonda davlat va diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar ham ijobiy tomondan yo'lga qo'yilgan. Samarqanddagi xristian obidalarining faoliyatining tiklanishi, yodgorliklarning ta'mirlash va restavratsiya ishlarini olib borishda mahalliy hokimliklar, Madaniyat va turizm boshqarmalari hamda O'zbekiston yeparxiyasi katta ishlar qilib kelmoqda. Jumladan, viloyat hokimligi va yeparxiya vakillari o'rtasida madaniy merosni asrash, diniy bayramlarni tinch va tartibli o'tkazish, tarixiy binolarni restavratsiya qilish bo'yicha qo'shma tashabbuslar amalga oshirildi va bu ishlar hozirda ham davom etmoqda. Masalan, Samarqanddagi Avliyo Aleksiy sobori va Kattaqo'rg'ondagi Avliyo Vladimir cherkovida o'tkazilgan restavratsiya ishlari davlat idoralari hamda cherkov jamoalarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari natijasida amalga oshirilgan [10].

O'zbekiston hukumati tomonidan 2018-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun ham cherkovlar faoliyatini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda [11]. Davlat va cherkov o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, xalqaro diniy bag'rikenglik forumlari, "Tinchlik va totuvlik" haftaliklari, va "Madaniyatlararo muloqot" tadbirlarida (ayniqsa Navro'z umumxalq bayramida nafaqat mahalliy balki shaharda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillarining ham o'z an'analari, milliy liboslari, urf-odatları asosida ishtirok etishida) yaqqol namoyon bo'ladi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida davlat va cherkovlar o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va ishonch asosidagi yangi tizim shakllandi.

Muhokama. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng pravoslav cherkovlarining huquqiy maqomi, moddiy sharoiti va ijtimoiy nufuzi tubdan o‘zgardi. Diniy hayotda kuzatilgan bu o‘zgarishlar mamlakatda olib borilayotgan bag‘rikenglik siyosati, millatlararo totuvlik va diniy erkinlikni ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatining bevosita natijasidir. Avvalo, hukumat darajasida diniy konfessiyalar faoliyatini qonuniy asosda qo‘llab-quvvatlash, diniy tashkilotlarni jamiyatning ajralmas qismi sifatida tan olish yo‘lini tanladi. Natijada, pravoslav cherkovlari o‘z tarixiy holatini tiklash, diniy marosimlarni erkin o‘tkazish, ibodatxonalarni restavratsiya qilish imkoniga ega bo‘ldi. Bu holat, o‘z navbatida, diniy va me‘moriy merosni saqlash va madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi [12]. Samarqand viloyati misolida olib qaralganda, bu jarayon yanada aniq ko‘zga tashlanadi. Bugungi kunda Samarqand shahrida joylashgan xristianlik cherkovlari nafaqat dindorlar uchun ibodat joyi, balki xalqaro sayyohlar tashrif buyuradigan muhim turistik va madaniy obidalar sifatida ham e‘tirof etilmoqda [13].

Shu bilan birga, pravoslav cherkovlarining faoliyatida ayrim muammolar ham mavjud. Ular asosan moddiy ta‘minot, kadrlar yetishmasligi va zamonaviy diniy ta‘lim tizimining sust rivojlanishi bilan bog‘liq. Biroq bu muammolar bosqichma-bosqich davlat va cherkov o‘rtasidagi hamkorlik orqali hal etilmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, bugungi pravoslav cherkovlarining holati O‘zbekiston jamiyatida diniy erkinlik, milliy birlik va madaniy xilma-xillikni mustahkamlovchi ijobiy omil sifatida baholash mumkin. Shuningdek, cherkovlar nafaqat diniy maskan sifatida balki turizm jihatidan ham mehmonlarni o‘ziga jalb qilayotganligi Samarqandni xalqaro miqyosda nufuzini oshirmoqda. Bu esa cherkovlarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rnini yanada kuchaytirish, ularni milliy merosning ajralmas qismi sifatida e‘tirof etish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy sohadagi faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2018.
3. Samarqand viloyati davlat arxivi fondlari. – F. 249, ro‘yxat 1, ish 15.
4. Muallifning 2024-2025-yillarda Samarqand shahrida olib borgan kuzatuv natijalari.
5. Samarqand viloyati arxivi, fond 50, ro‘yxat 4;
6. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent: Adolat, 1998 (2021-y. tahriri).
7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi hisobotlari. – Toshkent, 2022.
8. <https://sv.zarnews.uz/post/aleksievskiysoborvsamarkandesudbaodnogoxrama>

9. “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
10. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. “Cherkov binolarini restavratsiya qilish bo‘yicha qo‘shma tashabbuslar” hujjat to‘plami, 2015–2020 yillar.
11. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2018.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
13. Samarqand viloyati arxitektura va qurilish boshqarmasi ma’lumotlari. “Viloyatdagi diniy obidalar pasportlari”, 2019.